UMUMIY HISOBOT

I. O‘zbekiston milliy metrologiya instituti davlat muassasi va uning hududiy filiallarida korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amaldagi qonunchilikdagi topshiriqlar bajarilganligi to‘g‘risida umumiy axborot

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 12 yanvardagi PQ -81 sonli qarori ijrosi ta’minlash maqsadida qaror ilovasi bilan tasdiqlangan 29 ta indikator bo‘yicha markaziy apparatda hamda uning xududiy filiallari kesimida indikatorlar ijrosi ta’minlanib hujjatlashtirish ishlari olib borilmoqda.

II. Siyosat va tartib-taomillar

O‘zbekiston milliy metrologiya instituti davlat muassasi va uning hududiy filiallarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasiga taaluqli bo‘lgan ichki idoraviy hujjatlar ishlab chiqildi va amaliyotga tatbiq etildi:

Korrupsiyaga qarshi kurashish va kasbiy odob-axloq qoidalari.

III. Xavf-xatarlarni baholash

O‘zbekiston milliy metrologiya instituti davlat muassasi va uning hududiy filiallarida umumiy xavf-xatarlar xaritasi ishlab chikildi.

Xavf-xatarlar xaritasi O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi bosh direktori tomonidan 2021 yil 30 iyulda tasdiqlangan Nizom asosida institutga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun amalga oshiradigan 34 ta funksiyalarni qamrab olgan.

IV. Amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarshi kurashish tartib- taomillar

Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish

Institutda faoliyat ko‘rsatuvchi 663 ta xodimlar tomonidan manfaatlar to‘qnashuvi deklaratsiyasi to‘ldirilgan;

Monitoring natijalariga ko‘ra institutda foliyat ko‘rsatuvchi xodimlar orasida 14 tartibga solingan manfaatlar to‘qnashuvi aniqlangan.

Korrupsiyaga qarshi qoidalarni Tashkilot shartnomalariga kiritish

Institutning mehnat shartnomalariga korrupsiyaga qarshi shartlar kiritilgan va ular bilan institutda faoliyat ko‘rsatuvchi 663 ta xodimlarga tanishilgan.

Kontragentlarni tekshirish

Hisobot davrida kontragentlar bo‘yicha institutda 18 ta tekshiruvlar o‘tkazildi.

Hisobot davrida kontragentlar bo‘yicha o‘tkazilgan tekshiruvlar soni, ijobiy va salbiy xulosalarning foizlardagi nisbati kesimida ko‘rsatiladi.

Ishga kirishdagi nomzodlarni tekshirish

Institutda 2024-yil 1-4 choraklar davomida 17 ta vakant lavozimlarga yangi xodimlar ishga qabul qilindi. Institutda ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo‘yicha yo‘riqnomaga muvofiq nomzod tekshirildi va ush bu xodimlar korrupsiya bo‘yicha birlamchi o‘quv seminar o‘tkazildi.

V. Ta’lim va kommunikatsiya

Hisobot davrida 3 marotaba 189 nafar xodimlar ishtirokida yuridik fanlari nomzodini jalb qilgan holda korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha o‘qishlar tashkil etildi. Komplayens nazorat xizmati tomonidan 298 dan ortiq xodimlarga 7 marotaba seminar suhbatlar o‘tkazildi. Bundan tashqari 16 ta hududiy filiallarda 295 dan ortiq xodimlarga huquqni muhofaza qilish organlaridan mutaxassislar taklif qilinib seminar suhbatlar tashkil qilindi.

Shuningdek, “Kasbiy odob-ahloq, korrupsiyaviy xatti-harakatlar, manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish va tartibga solish” mavzusida o‘quv seminar mashg‘uloti o‘tkazildi.

Televideniya 2 marotaba, ijtimoiy sahifalarimizda 20 marotaba 1 marotaba radioda korrupsiyani oldini olish bo‘yicha chiqishlar qilindi.

VI. Korrupsiyaviy xatti-harakatlar va hukukbuzarliklar to‘g‘risidagi xabarlar

Institutning aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar va hukukbuzarliklar to‘g‘risidagi xabarlar kelib tushmagan.

VII. Monitoring va nazorat

Institutning korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini monitoringini bo‘yicha bir qancha tadbirlar o‘tkazildi. Bulardan, Institutning faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining aktualligi, korrupsiyani oldini olishga qaratilgan chora - tadbirlarning yetarliligi va ularning samaradorligi, korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo‘limlari faoliyatining samaradorligi, OAVlarda foydalanuvchilar tomonidan qoldirilayotgan izohlar, xodimlarni korrupsiyaga qarshi asosiy tartib taomillardan xabardorligi yuzasidan va yana bir qancha tadbirlar o‘tkazilib faoliyat yuzasidan tavsiyalar va aniq chora-tadbirlar belgilab berildi. **Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta’sir choralari**

Institutning 17 nafar (filial raxbari 4 nafar bo‘lim boshlig‘i 13 nafar xodimlar) nisbatan intizomiy choralarlari ko‘rilgan ro‘yxat ilova qilindi.

IX. Taklif va xulosalar

Institutda o‘tkazilgan monitoring natijalariga kura, xodimlari uchun hukukni muxofaza kilish organlarini jalb qilgan holda seminar va treninglar o‘tkazish, xodimlarni korrupsiyaga qarshi kurashishga oid ichki tartib qoidalar yuzasidan muntazam seminar va treninglar o‘tkazish kerak.